

## TARJIMADA EKVIVALENTLIK VA ADEKVATLIK ZARURMI?

**Tursunov Elmurod Umrzoqovich**

O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti,  
Ingliz tili nazariy aspektlari №1, kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarjima jarayonida adekvatlik va ekvivalentlikni ta'minlash vositalari va usullari ochib berilgan. Mazkur ikki markaziy tushunchaning kelib chiqishi, ularning tarjimada tutgan o'rni, tarjimashunoslar va soha mutaxassislarining ushbu hodisalarga oid ilgari surgan fikr-mulohazalari keltirilgan. Muallif ingliz tilidagi matnlarni o'zbekchaga o'girish ekvivalentlik va adekvatlikka erishishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish mexanizmlarini misollar yordamida ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** adekvatlik, ekvivalentlik, asliyat, tarjima matni, strukturaviy, qiyosiy-tipologik.

**Аннотация.** В данной статье описываются средства и методы обеспечения адекватности и эквивалентности в процессе перевода. Представлены происхождение этих двух центральных понятий, их роль в переводе, а также мнения исследователей перевода и экспертов отрасли по этим явлениям. Автор использует примеры для объяснения механизмов преодоления проблем, возникающих при переводе английских текстов на узбекский язык, с целью достижения эквивалентности и адекватности.

**Ключевые слова:** адекватность, эквивалентность, оригинальность, перевод текста, структурный, сравнительно-типологический.

**Abstract.** This article describes the means and methods of ensuring adequacy and equivalence in the translation process. The origin of these two central concepts, their role in translation, and the opinions of translation scholars and industry experts on these phenomena are presented. The author uses examples to explain the mechanisms for overcoming the problems that arise when translating English texts into Uzbek to achieve equivalence and adequacy.

**Key words:** adequacy, equivalence, originality, translation text, structural, comparative-typological.

**Kirish.** Har qanday tarjima asari yoki ijod mahsuli asliyatga imkon qadar mazmunan o'xshash, semantik jihatdan mutanosib bo'lmog'i va asliyatda ifodalangan mazmun-mohiyatni tarjimada mahorat bilan qayta tiklay olish, uning "shirasini" bera olishi hamda to'laqonli, adekvat va ekvivalent tarjimaga erishish har qanday tarjima faoliyatiga qo'yiladigan birlamchi talablardandir. "Tarjima tufayli o'zga tilda bino etilgan fan yoki adabiyot obidasi boshqa muhitga tushadi, bo'lak tilda yashay boshlaydi." (Salomov G., 1983) Mamlakatimizda ham tarjimashunoslik fanini rivojlantirish, unga nisbatan kompleks tadqiqot obyekti va tahsil predmeti sifatida qaralmoqda.

Yurtimizda tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan bir safda rivojlanib, uning ajralmas qismiga aylandi. Shayx Sa'diyning "Guliston", Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan-ul Abror", "Xisrav va Shirin"i, Firdavsiyning "Shoxnoma"si, Kaykovusning "Qobusnoma"si, Umar Xayyom ruboiylari, Hofiz g'azallari, shuningdek, arab ijodiy fantaziyasi mahsuli bo'lgan "Ming bir kecha", hind ertagi "Kalila va Dimna", Robindranat Tagor romanlari, qirg'iz xalqi eposi "Manas", L.N.Tolstoy romanlari, S. Ayniy va M. Tursunzoda asarlari, turkman adabiyoti namoyondalari Mahtumquli va Kerboboyevlar ijod mahsullari, T. G. Shevchenko

she'riyati va boshqa yuzlab asarlarning har biri o'zbek madaniyati tarkibidam mustahkam o'rin egallagan yodgorlik hisoblanadi.

**Metodlar.** Maqola mavzusini yoritishda tasniflash, taqqoslash va lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Tarjima nazariyasida *ekvivalentlik* va *adekvatlik* hodisalari nisbatan so'nggi paytlarda qo'llanila boshlanganligi ta'kidlanadi. Shu sababli, ushbu kategoriyalarni tarjima nazariyasining markaziy va tayanch tushunchalari sifatida tadqiq etishdan avval aynan tarjimashunoslikda qabul qilingan ushbu atamalar orqali ifodalangan konsepsiya mazmunini, turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan tarjimonshunoslarning mazkur konsepsiyalar borasida bildirgan munosabatlarini aniqlash va *tarjimada ekvivalentlik* tushunchasini *adekvatlik*, *mutanosiblik* va *aniqlik* kabi tushunchalar bilan qanday bog'liqlikka ega ekanini aniqlashga harakat qilish kerak. Etimologik jihatdan, *ekvivalent* so'zi lotincha *aequivalentem* so'zidan olingan bo'lib, *teng qiymatli*, *teng kuchli* yoki *teng ta'sirga ega*, *teng ma'nolarni*, *adekvat* termini esa lotin tilidagi *adaequatus* - *tenglashtirilgan*, *muvofiqlashtirilgan*, *teng* kabi ma'nolarni ifodalaydi. Rus tilida *ekvivalent* (эквивалентный) va *adekvat* (адекватный) so'zlari *ekvivalent*, ya'ni biror narsaga, tushunchaga *ekvivalent bo'lgan*, *teng qiymatli*, *teng ahamiyatli*, *ma'nodosh*, *teng kuchga ega bo'lgan* va *qaysidir ma'noda nimanidir o'rnini bosuvchi* degan ma'nolarda qo'llaniladi. O'zbek tilida esa 2006 yilda chop etilgan o'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, ushbu so'zlarning bildirgan ma'nolari "*biror narsaga teng yoki biror jihatdan mos keladigan va uning o'rnini bosa oladigan boshqa narsa, teng, teng bo'lgan, o'rnini bosa oladigan*" ekanini ko'rish mumkin.

Ushbu so'zlarning aynan tarjima jayaroni bilan bog'liq qo'llanish tarixiga nazar tashlasak, taniqli rus adabiyotshunosi P. M. Toper mazkur atama tarjimashunoslik faniga qachon va qay tarzda kiritilganligi to'g'risida turli mulohazalar mavjud ekanligini ta'kidlab, ushbu atama ilk marotaba zamonaviy tarjimashunoslikka mashina tarjimasi (zamonaviy kompyuter dasturlari va ilovalari yordamida qilingan tarjimaga) nisbatan qo'llanilganligini, inson tomonidan amalga oshiriladigan tarjima jarayoniga nisbatan esa R. Yakobson o'zining "Tarjimaning lisoniy jihatlari to'g'risida" nomli maqolasida mazkur termindan foydalanganligini aytib o'tadi. (Toper, 2000) Yana bir manbaga ko'ra, ayrim tillarda bugungi kunda muayyan so'z yoki iboraga ma'nodosh boshqa so'z yoki iboraga nisbatan qo'llaniladigan fransuzcha *équivalent* (ekvivalent) so'zi 19-asrning ikkinchi yarmida, ya'ni 1864-yilda qayd etilgan. Mazkur atamani 1821-1867 yillarda Fransiyada yashab, ijod qilgan shoir Charl Bodler (1821-1867) ijodida ham kuzatish mumkin: «*Le mot infini, comme les mots Dieu, esprit et quelques autres expressions, dont les équivalents existent dans toutes les langues*» – "Abadiylik so'zi Xudoi-taolo, ruh va dunyoning boshqa tillarida mavjud bo'lgan, ayni shu ma'nolarda qo'llaniladigan ekvivalentlar va ifodalarga mazmunan teng so'z hisoblanadi". Fransuz tilshunoslari Vine va Darbanelar tomonidan chop etilgan "Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy stilistikasi" (1958) asarida o'zbek tilidagi ekvivalent va ekvivalentlik atamalariga ma'nodosh *équivalent* va *équivalence* terminlari nafaqat bizga ma'lum ma'nodagi ekvivalentlik va qiyosiy ifoda shakllarining o'xshashligi sifatida, balki tarjima jarayonida qo'llaniladigan uslublardan biri sifatida ham ishlatiladi. (Vinay J.-R. Darbanel J., 1995) Mazkur atamalar kim va qay tarzda tarjimashunoslik sohasiga joriy etilgani emas, balki uning muayyan fanning ilmiy qonuniyatlarida qanday ma'noda qo'llanilishi va fanda mavjud bo'lgan boshqa atamalar bilan qanday bog'liqlikka egaligi ahamiyatga egadir. Gap shundaki, ingliz tilida chop etilgan lug'atlar va boshqa ishonchli manbalarga tayanilsa, ushbu maqol ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi, doimiy ravishda bir joydan boshqasiga ko'chib yuradigan odamlar shunga yarasha munosabatga (hurmatga) sazovor bo'ladi (*people pay a*

price for being always on the move, in that they have no roots in a specific place (the original meaning)), boshqasi esa, bunday odamlar majburiyat va tashvishlardan uzoq bo'ladi (people who keep moving avoid picking up responsibilities and cares), degan mazmunda ishlatiladi. Demak, maqol o'zining birinchi ma'nosida ko'p qo'llanilishini nazarda tutilsa, uni o'zbek tilida *daraxt bir joyda ko'karadi* tarzida o'girish maqsadga muvofiq bo'lardi. Binobarin, taniqli yozuvchi va tarjimon I. Go'furov ta'kidlaganidek, "Tarjimadan agar aniqlik, nazariya tili bilan aytganda, adekvatlik talab qilinmasa, bu tarjimanni butunlay noto'g'ri yo'nalishga olib kirib ketadi. Aniqlik talab qilmaslik tarjimada istagancha yo'rg'alashlar va "olib qochishlar"ga — ayniqsa, she'riy tarjimalarda — sabab bo'ladi va yo'l ochadi. Aniqlik har qanday tarjimaning bosh mezoni. Aniqlik bo'lgandagina ekvivalentlik va uning turlari ravshan tus oladi. Aniqlik bilan ekvivalentliklar bir-birlari bilan g'oyatda nozik bog'lanishlar bilan chirmashib ketadi. (G'ofurov I., 2010)

**Muhokama.** Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida quyidagicha jumla uchraydi, *Uning (Otabekning) yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi.* (Qodiriy A., 37) Asar dunyoning ko'p tillariga, jumladan, ingliz tiliga bir necha marta o'girilgan. Asarning 2021- yilgi amerikalik ijodkor Mark Riz tarjimasida yuqoridagi jumla *His face shifted from its usual calm to a strange, slight swaying from side to side,* (Riz M., 2019) tarzida tarjima qilingan. Romanning I. To'xtasinov, O. Mo'minov, A. Xamidovlar o'girgan tarjimasida mazkur parcha *He evidently was worried,* deb ag'dariladi. (Tuxtasinov, 2017) 2018- yilda ushbu badiiy asar angliyalik adabiyotshunos va tarjimon Kerol Ermakova tomonidan ham ingliz tiliga o'girildi. K. Ermakova talqinida yuqoridagi jumla *An involuntary twist revealing his agitation* tarzida ifodalanadi. (Ermakova K., 2019) Mutajimlar tomonidan boshqa tilga ag'darilgan hech bir asar yoki matn mazmunan yaqin bo'lsada, shaklan bir-biridan uzoqlashishi turgan gap, chunki har bir tarjimon-ifodkor o'z mahorati, qalam quvvati, tafakkur tarzi va ifodalash qobiliyatiga ega. "Har vaqtgi, tarjima maydoniga ikki alp-muallif bilan mutarjim yakkama-yakka tushadilar". (Salomov G., 1978) Ammo, aniqlik, muvofiqlik, ekvivalentlik kabi muhim masalalar tarjima faoliyatining oliy maqsadidir. Keling, asliyatda berilgan jumlaning tarjima birliklariga (tarjima qilinadigan birliklarga) ajratib, uning tarjimalarida mutarjimlarlar ekvivalentlikka (leksema va matn darajasida) qay darajada erishgan ekanini tadqiq qilamiz. Demak, parchani shartli ravishda yettita tarjima birligiga bo'lishimiz mumkin: *Uning (Otabekning) (1) yuzida (2) bir o'zgarish (3) va (4) vujudida (5) bir chayqalish (6) bor edi (7).* Sababi, agar asliyat matnida realiyalar, milliy o'ziga xoslik ifoda qiluvchi so'zlar, maqollar va milliy koloritni aks ettiruvchi atamalar ishtirok etmasa, yaxlit matn holatida (mazmunan) emas, balki so'z va so'z birikmalari darajasida ish ko'rish lozim.

Asliyat	Mark Riz tarjimasida	I.M.Tukhtasinov talqinida	Kerol Ermakova o'girmasi
(1) Uning	<i>His</i>	<i>He (evidently) (?)</i>	<i>His (agitation)</i>
(2) yuzida	<i>face</i>	—	—
(3) bir o'zgarish	<i>shifted from its usual calm to (?)</i>	—	—
(4) va	—	—	—
(5) vujudida	—	—	—
(6) bir chayqalish	<i>a strange, slight swaying from side to side</i>	<i>worried</i>	<i>an involuntary twist</i>
(7) bor edi	—	<i>was</i>	<i>revealing</i>

Ko'rinib turibdiki, hech qaysi tarjima variantlarida asardan olingan jumla mazmuni o'zining teng qiymatli, mos va mutanosib ekvivalentini topmagan. Xullas, muallif aytmoqchi bo'lgan ma'no tarjimada to'la-to'kib qayta tiklanmagan. Mark Riz tomonidan o'girilgan tarjimada nisbiy yaqinlikni kuzatish mumkin. Tarjimon asliyat matnining *vujudida bir chayqalish bor edi* qismini *a strange, slight swaying from side to side* deb, ya'ni *bir oz, g'alati chayqalish* tarzida o'giradi. Go'yoki Otabekning yuzidagi odatiy sokinlik tanasining bir oz, g'alati chayqalishiga o'zgargandek tasavvur beradi. Kerol Ermakova esa sodda qilib, *g'ayrioddiy chayqalish uning bezovtaligini namoyon etdi* tarzida tarjima qiladi. To'g'ri, romanni o'zbek tilida o'girish vazifasini bo'yniga olgan ingliz mutarjimlarini o'zbek adabiyotshunoslik normalaridan, badiiy-tasviriy, obrazli-hissiy va lisoniy-uslubiy me'yorlaridan to'liq habardor emasligi, o'zbek tiliga xos nozik qochirimlari, gapni leksik-semantik tuzilishi, milliy koloritli yuklama bilan sug'orilganini ko'zdan qochirganlikda ayblash mumkindir, ammo shu tilni mukammal o'zlashtirigan, shu davr adabiy sarchashmalaridan bahramand bo'lgan mahalliy tarjimon-mutaxassislarni jumlaning shunchaki *he evidently was worried* (U shak-shubhasiz tashvishlangan edi) shaklida xomtama, g'o'r, pala-partish tarjima qilib qo'ya qolganligini xazm qilish qiyin. Romandagi ushbu jumla *a certain change came over his face and his whole body trembled slightly* tarzida o'girilganda, asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi ekvivalentlik va mutanosiblik qaror topgan bo'lardi.

Kade va leksik ekvivalentlikka oid mulohazalar bildirgan boshqa tarjimashunoslar va xususan terminologiya sohasida faoliyat olib boruvchi olimlar yuqorida keltirib o'tilgan ma'no farlanishlari va miqdoriy sxemalarni umumlashtirgan holda, ekvivalentlik munosabatini quyidagi omillarga ko'ra tasniflaydi:

1) Agar tarjima matnidagi biror birlik asliyat matnida bosh birlikka mos kelsa, bu *so'zma-so'z (birma-bir, birlikma-birlik) ekvivalentlik* deyiladi.

2) Tarjima matnidagi biror birlik asliyat matnidagi bir necha birliklarga mos kelsa, *birlikdan birliklarka mutanosiblik (bir soz'dan unda hajman katta bo'lgan birlikka mos kelishlik)* deymiz.

3) O'girilgan matndagi ma'lum birlik asliyat matnidagi boshqa birlikka qisman mos kelsa,

*qisman ekvivalentlik (birlikdan birlik qismiga, ya'ni asliyat matnidagi biror so'zni tarjima matnidagi boshqa so'z qismiga mos kelishi)* deb ataladi.

4) Har ikka tildagi birliklar bir-biriga umuman mos kelmaganda esa, *nol ekvivalentlik* deyiladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, katta ehtimollik bilan "adekvatlik" atamasi tarjima nazariyasi faniga falsafaning bilish nazariyasi bo'limidan o'tgan bo'lishi mumkin, chunki bilish nazariyasiga ko'ra, "adekvat" atamasi voqeylikning obyektiv munosabatlari va bog'liqliklariga oid g'oyalar, tushunchalar va mulohazalarni inson ongida *to'g'ri inikoslanishini* anglatadi. Tarjima nazariyasida esa ayni shunday voqeylik sifatida tarkibiy qismlari o'rtasida qat'iy tizimli munosabat va bog'lanishlarga ega asliyat matni qabul qilinadi. Tarjima jarayonidan kutilgan asosiy muddao bunday o'zaro bog'lanishlar va munosabatlar tizimini boshqa tilda muvofiq tarzda qayta jonlantirishdan iboratdir. Horijiy mamlakatlar tajribasida tarjima nazariyasiga oid asliyat asari yoki matnini boshqa tilda *muvofiq tarzda qayta jonlantirish* deganda *muvofiq so'zi adekvat so'ziga* mos keladi. *Muvofiq* atamasiga *mutanosib, mos keluvchi, to'g'ri, aniq* kabi ma'nodosh soz'lar orqali oydinlik kiritish bilan tarjima qilingan matn, parcha, jumla, gap, kontekst, asar yoki ijod mahsuli uning asl nusxasi bilan taqqoslaganda qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvur etarlicha bo'lmaydi. Yuqorida keltirilgan so'zlar ichida *mutanosib* atamasi tarjima qilingan matnini

uning asl nusxasidan hajman kattalashib yoki kichiklashib ketmasligi, asliyat matniga yuqori darajada hajman yaqin bo'lishi kerakligiga ishora qiladi, ammo ko'p hollarda bu talabni amalga oshirishning deyarli imkoni yo'q.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Salomov G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Toper M.P. (2000). *Perevod v sisteme sravnitel'nogo literaturovedeniya*. Moskva.
3. Vinay., & Jean Darbelnet. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
4. G'ofurov I. (2010). Tarjimada aniqlik kerakmasmi? *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, (8).
5. Qodiriy A. (2017). *O'tkan kunlar*. Toshkent: Info Capital Group.
6. Reese M. (2021). *Bygone days by Abdulla Kadiri*. Nashville, TN: Muloqot Engagement Program.
7. Tuxtasinov I.M. (2017). *The days gone by*. Toshkent: Mashhur Press.
8. Ermakova C. (2018). *Days gone by*. Abdulla Qadiri. Paris: Nouveau Monde Editions.
9. Salomov G'. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish [Introduction to translation theory]*. Toshkent: O'qituvchi.